

## Xulqdagi deviantlik holatlarining psixologik talqini

Mirzobobir Bahodir o'g'li Qambarov  
Sardor Umedovich Choriyev  
olimovlaziz82@gmail.com  
Buxoro viloyati Ichki ishlar boshqarmasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada deviant xulq-atvorli o'smirlar alohida xususiyatlarining ijtimoiy-psixologik tashxisining o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** deviant xulq, o'smirning hayotiy mezonlari, ma'naviy va huquqiy me'yorlar, psixodiagnostika qilish, deviant xulqqa moyilligi.

## Psychological interpretation of behavioral deviants

Mirzobobir Bahodir o'g'li Qambarov  
Sardor Umedovich Choriyev  
olimovlaziz82@gmail.com  
Bukhara region Department of Internal Affairs

**Abstract:** This article discusses the specific features of the socio-psychological diagnosis of specific characteristics of adolescents with deviant behavior

**Keywords:** deviant behavior, adolescent life criteria, moral and legal norms, psychodiagnostics, propensity for deviant behavior

Jamiyatga, ijtimoiy mavjudlikka va har bir insonga o'zining yashash va rivojlanish nuqtasiga og'ish xosdir. Bu og'ishning sababi asosini insonning tevarak atrof, ijtimoiy muhit va o'z-o'zi bilan o'zaro muloqoti tashkil etadi. Insonlarning fe'li-atvori va xulqida kelib chiquvchi ruhiy-ma'naviy, ijtimoiy-madaniy, ma'naviy-ahloqiy o'zgarishlar jamiyatning rivojlanishiga, mukammallashishiga va rivojlanishiga u yoki bu darajada ta'sir o'tkazadi.

Fuqarolarning erkinliklari va huquqlari, qolaversa qonun ustivorligiga rahna soladigan g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar islohotlarimizning samaradorligini ta'minlashga to'sqinlik qiladi. G'ayriijtimoiy, noqonuniy xatti-harakatlar psixologiya fanida deviantlik yoki deviant xulq-atvor kabi tushunchalar orqali ifodalanadi.

Jamiyat taraqqiy eta borgan sari, undagi ijtimoiy me'yorlar va tartibotlar tanimsiz o'zgarib, sayqallasha borishi, unga bevosita bog'lik deviantlik tushunchasini mazmun va mohiyatini izohlashga bo'lgan urinishlarni, ta'limotlarni ham o'zgarishiga,

rivojlanishiga zamin yaratdi. Inson o'zi yashayotgan jamiyatning ijtimoiy me'yorlari va boyliklarini qadriga yetgandagina o'zining ijtimoiy statusga egalik darajasini anglab yetadi. Jamiyatdagi ijtimoiy me'yorlardan og'ish xulqi, ma'naviy-huquqiy me'yorlardan chekinish bunga misol bo'la oladi. Umuman olganda keyingi paytlarda deviantlik va deviantlikka xos bo'lgan holatlar haqida yondashuvlar turli-tuman ko'rinishlarda ifoda etilmoqda. Masalan, deviantlik yoki deviant xulq-atvor tushunchasi bilan yonma-yon holatda delikventlik, adekvantlik, asotsial xulq, ijtimoiy deviantlik, noijtimoiy holatlar, g'ayriijtimoiy holatlar kabi ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda. Ilmiy adabiyotlarda keltirilishicha, xulqiy og'ish muammosini tasniflashni shartli ravishda uch asosiy yo'lini ajratish mumkin: ijtimoiy-xuquqiy, klinik va psixologik.

Inson xulq-atvori, psixologik xususiyatlari bilan bog'liq masala insoniyatni qadim zamonlardan buyon qiziqtirib kelgan. Bu sohada izlanish olib borgan ko'plab olimlar insonning tug'ilganidan boshlab shakllanishi bilan bog'liq barcha hodisalarni o'rganishni tadqiq qilish orqali, uning o'ta murakkab jihatlarini kashf etgan. Haqiqatdan ham, inson xulq-atvorining jamiyatda belgilangan hayotiy normal mezonlardan og'ishi, buzilishi bilan bog'liq muammoni psixologiya fani o'rganadi.

Psixologiyada deviant, ya'ni oq'uvchi axloqning turli shakllari, anomal turlari, sabab va motivlari mavjud bo'lib, bu pedagoglar, psixologlar, psixoterapevt va boshqa inson ongi va tarbiyasi masalalari bilan shug'ullanuvchi soha mutaxassislarining tadqiqot obekti hisoblanadi.

Ma'lumki, kishining deviant axloqini jamiyatda qabul qilingan me'yorlarga zidligi va ruhiy jarayonlarining muvozanatsizligi, moslashuvchan emasligi ko'rinishida yoki uning shaxsiy axloqi ustidan axloqiy va estetik nazoratdan bo'yin tovlash ko'rinishidagi o'zini faollashtirish jarayonining buzilishida namoyon bo'luvchi alohida qilmishlar yoki qilmishlar tizimi sifatida belgilash mumkin. Og'uvchi xulq (deviant, lot. *deviatio* – og'ish) deb, kishining qilmishlari, faoliyati turi odatiy, umum e'tirof etilgan me'yorlardan farq qiladigan yoki u o'zi a'zosi bo'lgan jamiyat tomonidan qabul qilingan me'yorlarga mos kelmay, barqaror ravishda ularning ijtimoiy me'yorlaridan og'ishida namoyon bo'ladigan axloqqa aytiladi.

Demak, deviant xulqli shaxs deb, birinchi navbatda, axloqiy jihatdan qarindosh-urug'lari va do'stlarining ko'nglini og'ritadigan va atrofdagilarning hayoti uchun xavf tug'diradigan shaxslarga (individlarga) aytiladi. Shaxs va borliqning o'zaro munosabatlarini beshta usul bilan aniqlash mumkin:

- 1) moslashuv;
- 2) qarshilik ko'rsatish;
- 3) ro'para bo'lish;
- 4) vaziyatdan qochish;
- 5) mensimaslik.

Yetuk intellektual salohiyatli shaxslar voqelikka moslashuvni tanlaydi. Qarshilik ko'rsatishda shaxs faol ravishda o'ziga, dunyoqarashiga mos kelmaydigan borliqni o'zgartirishga, ya'ni uni o'zining shaxsiy qarashlari va qadriyatlariga muvofiq o'zgartirishga harakat qiladi. U o'zi duch kelayotgan barcha muammolar borliqning ijtimoiy me'yorlariga asoslanganligiga ishonadi va borliq bilan kurash, borliqni o'ziga moslashtirib o'zgartirishga harakat qilish yoki jamiyat me'yorlarini buzuvchi axloqdan maksimal darajada foydalanish uning o'z maqsadlariga erishishining yagona usuli bo'lib qoladi. Bunda mazkur shaxsga nisbatan borliq tomonidan qaytariladigan javob ham xuddi shunday qarshi harakat qilish, shaxsni o'zgartirish, uni voqelik talablariga moslashtirishga qaratilgan bo'ladi. Borliqning shaxsning dunyoqarashiga zid bo'lgan ijtimoiy me'yorlariga qarshilik ko'rsatishi kriminal va delinkvent xulq-atvorda uchraydi. Borliqning qarshilik ko'rsatishi, uni o'zlashtirish va tushunishning subektiv ravishda buzib ko'rsatilishi sabablari, tevarak-olam tomonidan dushmanlarcha qabul qilinadigan ruhiy nuqson alomatlari va ruhiy-patologik buzilishlar bilan bog'liq. Ruhiy kasallik alomatlari atrofdagilarning qilmishlari sabablarini bir xil baholash imkoniyatini izdan chiqaradi, buning oqibatida muhit bilan o'zaro samarali munosabatlar qiyinlashadi.

Borliqni negativ va oppozitsion baholaydigan kishilar borliq bilan o'zaro munosabatda o'zini unga moslashishga layoqatsiz deb hisoblab, ongli yoki ongsiz ravishda tanlaydilar. Ular shuningdek, nomukammalligi, konservativligi, bir qolipdaligi, ekzistensial qadriyatlarni ezib tashlashi yoki ochiqchasiga insonparvarlikka qarshi faoliyat olib borishi sababli, moslashishga «loyiq bo'lmagan» borliqqa moslashishni istamaslikni nazarda tutishlari ham mumkin. Borliqni mensimaslik, shaxs o'zining shaxsiy tor dunyosida mavjud bo'lgan holda borliqning talablari va me'yorlarini hisobga olmaganda, uning hayoti va faoliyatining avtonomizatsiyalashuvida (mustaqilligida) namoyon bo'ladi. Bunda na to'qnashuvlar, na qarshi harakatlar va na voqelikdan chiqib ketish holati sodir bo'ladi.

Xulq-atvordagi og'ishlarni tasniflashga bo'lgan ko'pgina urinishlarga qaramay tadqiqotchilar yagona mukammal tasnifni tuzishga hozircha hali muvaffaq bo'lishgani yo'q. Batafsil bayon qilish bir talay qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Deviant xulq-atvor muammosida intizomiy xarakter asosiy sabab sifatida belgilanadi. Afsuski shaxsdagi deviant og'ishlar xaqidagi yagona mukammal ta'rif yo'q. Ushbu tushunchaning murakkabligi shundaki, u fanlararo xarakterga ega bo'lib ko'pgina fanlar tomonidan o'ziga xos mazmun nuqtai nazaridan o'rganiladi. Hozirgi vaqtda ushbu ibora asosan ikki xil ma'noda qo'llaniladi. Jumladan, rasman o'rnatilgan (belgilangan) yoki mavjud jamiyatda yuzaga kelgan, shakllangan normalarga mutloq mos kelmaydigan "xatti-harakat, inson harakati" ya'ni deviant xulq-atvor. Bu tushuncha psixologiya, pedagogika va psixiatriyaning predmeti sifatida qo'llanilsa, ikkinchidan jamiyatda rasman belgilangan yoki shakllangan normalarga mutloq mos

kelmaydigan, nisbatan ommaviy va barqaror shaklda bo'lgan inson faoliyatining ifoda etuvchi "ijtimoiy hodisa" sifatida u (ya'ni deviant xulq atvor) ham qo'llaniladi.

Deviant xulq-atvor ijtimoiy hodisa sifatida o'rganilar ekan, uni bir necha asoslarga ko'ra guruhlariga bo'lish mumkin:

- ommaviy va individual bog'liqlik ko'lamini ajratish;

- pozitiv va negativ (kishini g'ashini keltiradigan yomon natija va yashirin, ammo yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan xavfni tug'dirish) holatlarning oqibatlariga e'tibor berish;

- sub'ektga ko'ra - ravshan og'ish qiyofasi, norasmiy guruhlar (masalan, bosqinchilik to'dalaridagi faoliyat), rasmiy tizimlardagi faoliyat, shartli ijtimoiy guruhlar ( ichkilikbozlik);

- ob'ektga ko'ra - iqtisodiy, maishiy, mol-mulkka oid qoidalarni buzishlar va boshqalar;

- davriyligiga ko'ra - bir martali va uzoq muddatli;

- me'yorlarni buzish tartibiga ko'ra - jinoyatchilik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, o'z joniga qasd qilish, axloqsizlik, daydilik, foshihabozlik, bezorilik, tekinxo'rlik, korrupsiya, byurokratizm, terrorism, rasizm, genotsid, tuzumga qarshi munosabat.

Olimlarning fikricha, shaxs xulq-atvori jamiyat bilan munosabatlarda quyidagi to'rt xil ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin: me'yoriy xulq-atvor, ijtimoiy-psixologik ko'nikish, deviant xulq-atvor va huquqbuzarlik.

Shuningdek, deviantlik ikki yirik guruhga ajratib ham ko'rsatiladi:

1. Psixik nosog'lom ko'rinishdagi xulq-atvor, unda yaqqol yoki yashirin shaklda ruhiy nosog'lomlik mavjud bo'ladi. Bu guruhga astenik (jismoniy va ruhiy zaif odam), xarakterida shizofreya va tutqanoqning mavjudligi ko'rinishlari kiradi.

2. Insoniyat hamjamiyatiga mansub bo'lgan ijtimoiy-axloqiy me'yorlardan og'ish xulq-atvorini ijtimoiy patologiyaning turli ko'rinishlarida namoyon bo'lishi-ichkilikbozlik, narkomaniya, foshihabozlik va boshqa ko'rinishlaridir. Bunday xulq atvor nojo'ya va jinoiy xatti-xarakatlarda ko'zga tashlanadi. Bundan tashqari deviantlikning muqarrar ko'rinishlarini jinoyatchilik, ichkilikbozlik, narkomaniya, foshihabozlik, o'z-o'zini o'ldirishga ajratish mumkin. Ilmiy adabiyotlarda deviant xulq-atvor nostandart (ijtimoiy andozalar doirasidan chiqqan holda fikrlash va faoliyat) va destruktiv xulq-atvoriga, ijtimoiy me'yorlarni (huquqiy, axloqiy, madaniy) buzilish yo'nalishiga ko'ra, shuningdek shaxsning jamiyatdan ajralib qolishi va tanazzuliga ajratiladi.

Ijtimoiy psixologik tadqiqotlarga ko'ra, deviant xulq-atvorli bolalar o'z ot-onalarining ham individual-hayotiy, kasbiy faoliyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Deviant xulq-atvorli bola nafaqat o'zigina me'yorlarga moslasha olmaydi, balki o'zi anglamagan holda ijtimoiy normalarga, me'yorlarga moslashgan ota-onalari, yaqinlari faoliyatini ijtimoiy me'yorlardan og'ishiga sabab bo'lmoqda.

Deviant xulq-atvorli bolalar yashayotgan oilalardagi psixologik muhitni o'rganish natijalarining ko'rsatishicha, bu oilalarda ota-onalar ko'pincha salbiy emotsional-hissiy holatlarni boshlaridan kechiradilar, tushkun kayfiyatda yuradilar, kelajakka umidsizlik bilan qaraydilar, xarakterlarida qo'pollik, qaysarlik, o'zgalarga yaxshilikni ravo ko'rmaslik kabi salbiy sifatlar aks eta boshlaydi. O'z-o'zidan ma'lumki, bunday kayfiyatdagi ota-ona deviant xulq-atvorli bolasini muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirishga qodir emas. Avvalo, bunday ota-onalarning o'zlari ijtimoiy psixologik yordamga muhtojdir.

Tadqiqotlarda quyidagi krizisli holatlar bosqichlari aniqlangan (odatda, bu holatlar ota-onalarda bosqichma-bosqich ro'y beradi, ammo paydo bo'lish va o'tishlari hammada har xil):

1. Ota-onalar bolalaridagi deviant xulq-atvorlarni tan olgilar kelmaydi, dalillarni yoshlikka, tajribasizlikka yo'yishadi. Muammoni to'g'ridan-to'g'ri inkor etadilar, ammo shubha paydo bo'ladi. Salbiy emotsional-hissiy holat yuzaga keldi, u kundankunga kuchayib bormoqda.

2. Deviant xulq-atvor dalillari inkor qilib bo'lmaslik darajasiga yetadi. Ota-onadagi salbiy emotsional-hissiy holat yuqori depressiv darajaga yetadi. Ilojsizlik, najotsizlik holati sodir bo'ladi, g'ayritabiiy, mo'jizaviy chora-tadbirlar xayolga kela boshlaydi.

3. Vaziyatdan chiqish chora-tadbirlari to'g'risida fikrlash boshlanadi (mana shu bosqichda ota-onaga psixologik yordam kerak).

4. Vaziyat qabul qilinadi, mutaxassislariga murojaat qilish eng to'g'ri yo'l ekanligi tan olinadi va bu yo'lda harakat boshlanadi.

5. Deviant xulq-atvorli bolasiga ota-ona butun e'tiborini, faoliyatini bog'lab, atrofidagi kasbiy, ijtimoiy munosabatlarini uzib qo'yishi mumkin.

6. Psixolog ota-onaga deviant xulq atvorli bolani davolash, ijtimoiylashtirish bilan birga o'zlarining ham kasbiy, ijtimoiy, individual hayotlari bilan yashashlari kerakligini uqdirib boradi.

Oilada psixokorreksion ishlarni olib borishda quyidagi o'zaro ta'sir usullaridan foydalanishi lozim:

- oilaga ijtimoiy-psixologik xizmat uyushtirish;
- farzandlarga psixologik xizmatni joriy etish;
- ota-ona va farzandlar uchun tibbiy-psixologik-pedagogik maslahatlar berish;
- xulqiy og'ishlar bo'yicha aniq psixodiagnostika va psixologik korreksiyasi dasturini tashkil qilish;
- profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- oila va farzandlar huquqini himoya qilishning ta'sirchan usullarini qo'llash.

Notinch oilalar bilan ish olib borishda oilaning bolaga munosabati va nosog'lom muhitni yuzaga kelishi o'rganiladi. Ota-onalarga farzand tarbiyasi yuzasidan



psixologik-pedagogik maslahatlarni berib boriladi. Psixologik savodxonlik darajasini ko'tarish maqsadida psixologik treninglar o'tkaziladi.

Shunday qilib, jamiyatda deviant xulq-atvorli bola to'la ijtimoiylashib ketishi, ota-onalarning individual, ijtimoiy, kasbiy hayotlarini to'la, normal saqlanib qolishi choralari ko'rish va ularga ko'maklashish uchun har bir shaxs mas'uliyatlidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Elov Z.S. Berdiyeva D.Sh. Psychological reasons for suicide motivation in adolescents with deviant behavior. Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences scientific journal. volume 2, issue 2 February 2022 1003-1009
2. Elov Z.S. O'smirlik davrida shaxs xulq-atvorida kuzatiladigan reaksiyalarning psixologik ta'siri. science and education scientific journal volume 3, issue 3 march 2022 442-447
3. Elov Z.S. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. O'quv-metodik qo'llanma. 2021. Buxoro 1-164.
4. Elov, Z. S. (2016). Researches of the Reasons Conditions. Fastors of Suicide Rick Intellectual Archive, 5(1), 49-53.
5. Elov, Z. S. (2022). O 'smirlik davrida shaxs xulq-atvorida kuzatiladigan reaksiyalarning psixologik ta'siri. Science and Education, 3(3), 442-447.
6. EZ Sattarovich. CONDITIONS AND THE REASONS OF CASES OF THE SUICIDE AMONG THE STAFF OF LAW-ENFORCEMENT BODIES. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 5 (3) 2017
7. Furqatovich, U. F., & Sattarovich, E. Z. (2022). SUICIDE-AS A GLOBAL PROBLEM FACING HUMANITY. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(02), 349-354.
8. Jo'Rayeva, Z. A., & Maxmudova, Z. M. (2022). Sudga oid psixologik ekspertizani tashkil qilish va uni o'tkazishning o'ziga xosligi. Science and Education, 3(4), 1916-1922.
9. Olimov L.Ya, Avezov O.R., Baratov Sh. R. Psixologiya nazariyasi va tarixi (o'quv qo'llanma) <https://library.sammi.uz/Library/> 1 (1), Ўзбекистон
10. Olimov L.Ya, Baratov Sh. R. АВЕЗОВ О.Р. Psixologiya nazariyasi va tarixi. Darslik. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti. Toshkent. 2019. -B. 494.
11. Olimov L.Ya. Shaxs psixologiyasi. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2019. -B. 280.
12. Olimov L.Ya. Xulqi o'gishgan bolalar psixologiyasi. Darslik. Buxoro, "Durdona". 2019. – 460.

13. Olimov, L. (2020). ЛЯ психологической защита: ПСИХОЛОГИК ҲИМОЯ МЕХАНИЗМЛАРИНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 2(2).

14. Olimov, L. (2021). maqola СТРЕССЛИ ВАЗИЯТЛАРДА ПСИХОЛОГИК ҲИМОЯ МЕХАНИЗМЛАРИ ВА КОПИНГ ХУЛҚ-АТВОР НАМОЁН БЎЛИШИНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ: СТРЕССЛИ ВАЗИЯТЛАРДА ПСИХОЛОГИК ҲИМОЯ МЕХАНИЗМЛАРИ ВА КОПИНГ ХУЛҚ-АТВОР НАМОЁН БЎЛИШИНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 7(7)..

15. Qizi, S. M. Z., & Sattorovich, E. Z. (2022). PRIORITIES OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(3), 900-904.

16. UFF Elov Ziyoddullo Sattorovich. SUICIDE – AS A GLOBAL PROBLEM FACING HUMANITY. WEB OF SCIENTIST: INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL 1 (Volume 3 ...

17. Yarashovich, O. L. (2020). O'smirlarning ba'zi dinamik xususiyatlari kontekstida kurashish xatti-harakatlarini o'rganish xususiyatlari. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1(1).

18. ZM Maxmudova, AZJKYK Olimov, L Ya. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. "Durdon" nashriyoti. Buxoro. 2021

19. қизи Расулова, М. Б., & Олимов, Л. Я. (2022). ЎСМИР ШАХСИ РИВОЖЛАНИШИДА АҲЛОҚИЙ НОРМАЛАР МУАММОСИНИНГ ҲОЗИРГИ ЗАМОН ПСИХОЛОГИЯСИДА ТАДҚИҚ ЭТИЛИШИ. ТАЪЛИМ ВА РИВОЖЛАНИШ ТАҲЛИЛИ ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ, 2(3), 204-207.

20. Махмудова З.М., Олимов, Л. Я. (2021). ЭКСТРЕМАЛ ВАЗИЯТЛАРДА КОПИНГ ХУЛҚ-АТВОР ВА СТРАТЕГИЯЛАР НАМОЁН БЎЛИШИНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1(1).

21. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Психологические механизмы девиантного поведения. Психология XXI века. Ярославль., 2020. –С. 125-127.

22. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Стрессли вазиятларда психологик ҳимоя механизмлари ва копинг хулқ-атвор намоён бўлишининг ижтимоий психологик хусусиятлари: стрессли вазиятларда психологик ҳимоя механизмлари. Psixologiya ilmiy jurnali. 2020 yil, 4 son 109-115 b.

23. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Ўсмирларда психологик ҳимоя механизмларининг намоён бўлишининг ўзига хослиги. Psixologiya ilmiy jurnali. 2021 yil, 4 son 103-112 b.

24. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Ўсмирларда психологик ҳимоя механизмларининг намоён бўлишининг ўзига хослиги. XXI аср психологияси 1 (1), Ўзбекистон
25. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Экстремал вазиятларда копинг хулқ-атвор ва стратегиялар намоён бўлишининг ижтимоий психологик хусусиятлари. *Psixologiya ilmiy jurnali*. 2021 yil, 3 son 98-106 b.
26. Олимов Л.Я., Эшов Э.С. Авезов О.Р. Девиант хулқ-атвор психологияси. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2019. -В. 420.
27. Олимов, Л. Я. (2020). Olimov ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА АХБОРОТ-ПСИХОЛОГИК ХАВФСИЗЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ ([buxdu.uz](http://buxdu.uz)), 2(2).
28. Элов, З. С. (2014). Теоретические основы суицидального поведения. *Psixologiya*, 4, 16.
29. Элов, З. С. (2015). Суицидал уринишларни содир этишга сабаб бўлувчи асосий омиллар (Ички ишлар органлари ходимлари мисолида). *Psixologiya*, 2, 18.
30. Элов, З. С. (2016). Суицидал хулқ шаклланиши ижтимоий-психологик муаммо сифатида (ички ишлар идоралари ходимлари мисолида). *Psixologiya*, 3, 23.
31. Элов, З. С. (2017). Профилактика самоубийств сотрудников оvd. Вестник интегративной психологии, 208-212.
32. Элов, З. С. (2021). Замонавий жамиятда суицид (ўз жонига қасд қилиш) муаммолари. *Eurasian journal of Law, Finance and Applied Sciences*, 2, 26-28.
33. Mahmudova, Z. M., & Olimov, L. Y. (2021). Social psychological characteristics of psychological defenses manifested in adolescents in extreme situations. Вестник интегративной психологии журнал для психологов, (22), 233-237.
34. Mahmudova, Z. M., & Olimov, L. Y. Osmirlarda ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish. Monografiya. "Buxoro viloyat bosmaxonasi MChJ" nashriyoti. Buxoro. 2021.
35. Олимов, Л. Я., & Махмудова, З. М. (2021). Психодиагностикани автоматлаштириш ва фанни ўқитишда инновацион педагогик ва ахборот-коммуникацион технологиялардан фойдаланишнинг ўзига хослиги. Масофавий таълимни ташкил этишнинг педагогик-психологик жиҳатлари мавзусидаги Республика илмий-амалий анжуман материалли. Тошкент, 489-493.